2. Utilit (uskunaviy) dasturlar va komputer viruslari haqida ma'lumot bering.
3. A=rost, B=yolg'on, D=rost bo'lganda $\neg A \wedge (B \vee \neg D)$ mantiqiy ifoda qiymatini hisoblang.

8-bilet

1. Sistema blokini tashkil etuvchi qismlar va qurilmalar, ularning ishlash prinsiplari haqida ma'lumot bering.
2. Fayllarning xususiyatlarini misollar bilan izohlang.
3. $\neg(\neg A \vee \neg B \wedge \neg D)$ mantiqiy ifodaga mos mantiqiy sxema chizing.

9-bilet

1. Kompyuterning xotira qurilmalari va ularning turlari haqida ma'lumot bering.
2. Katalog (Papka) xususiyatlarini misollar bilan izohlang.
3. $\neg(\neg A \vee B) \vee \neg D$ mantiqiy ifodaga mos rostlik jadvalini yozing.

10-bilet

1. Monitorlar va ularning turlari.
2. Operatsion sistemaning ichki va tashqi buyruqlari.
3. A="11₂=3₁₀", B="1Mbayt=1024 bit", D="10₂=4₁₀" bo'lganda $A \wedge \neg(B \vee D)$ ifoda qiymatini hisoblang.

11-bilet

1. Qattiq disklar ustida bajariladigan asosiy amallar.
2. Qobiq dasturlar va ularning vazifalari.

3. $A=\text{rost}$, $B= \text{rost}$, $D=\text{yolg'on}$ bo'lganda $\neg A \wedge \neg(B \wedge D)$ mantiqiy ifoda qiymatini hisoblang

12-bilet

1. Multimedia texnologiyasi va u bilan bog'liq kompyuter qurilmalari haqida ma'lumot bering.
2. WINDOWS operatsion sistemasining bosh menyusidagi "Dasturlar" (Программы) bo'limi haqida ma'lumot bering.
3. $\neg(\neg A) \wedge B \wedge \neg D$ mantiqiy ifodaga mos rostlik jadvalini yozing.

13-bilet

1. Informatika fanining maqsad va vazifalarini tushuntiring.
2. Doppix operatsion sistemasi haqida ma'lumot bering.
3. $A="100_2=4_{16}"$, $B="1\text{Tb}=1024 \text{ Gb}"$, $D="B_{16}=1010_2"$ bo'lganda $\neg A \wedge (B \vee \neg D)$ ifoda qiymatini hisoblang.

14-bilet

1. Doimiy va tezkor xotira qurilmalarining ishlash prinsiplarini tushuntirib bering.
2. Dasturlardagi menyu hamda uning vazifalarini tushuntiring.
3. Elektron jadval muharrirlarining vazifalarini tushuntiring.

15-bilet

1. Tovush, video va tarmoq platalari haqida ma'lumot bering.
2. Kompyuter xotirasida ma'lumotlarni tashkil etish prinsiplarini tushuntiring.
3. $\neg(A \vee \neg(\neg B \wedge \neg D))$ mantiqiy ifodaga mos rostlik jadvalini yozing.

16-bilet

1. Axborot tashuvchi vositalar, ularning turlari va xususiyatlari haqida ma'lumot bering.
2. Windows operatsion sistemasining ish stoli haqida ma'lumot bering
3. $\neg(\neg B \vee \neg A) \wedge \neg D$ mantiqiy ifodaga mos mantiqiy sxema chizing.

17-bilet

1. Protessor va uning vazifalarini tushuntiring.
2. Amaliy dasturlar, ularning vazifalari.
3. $A \wedge (\neg B \vee \neg D)$ mantiqiy ifodaga mos mantiqiy sxema chizing

18-bilet

1. Kompakt disklardagi axborotni o'qish va yozish jarayonini izohlab bering.
2. Kompyuter xotirasidagi ma'lumotlarga nom berish. Fayl nomining hossalari.
3. $A = "100_2 = 3_{10}"$, $B = "1 \text{ bayt} = 1 \text{ Kbit}"$, $D = "A_{16} = 1010_2"$ bo'lganda $A \wedge \neg(B \vee \neg D)$ ifoda qiymatini hisoblang

19-bilet

1. Kompyuterga axborot kiritish qurilmalari haqida ma'lumot bering.
2. Windows operatsion sistemasining Hujjatlar ("Документы") standart papkasining tashkil etuvchilari va ularning vazifalari.
3. $A = "110_2 = 6_{10}"$, $B = "1 \text{ Mb} = 1024 \text{ Kb}"$, $D = "F_{16} = 1111_2"$ bo'lganda $A \wedge \neg(B \vee \neg D)$ ifoda qiymatini hisoblang.

20-bilet

1. Windows operatsion sistemasining boshqaruv paneli va uning vazifalari haqida tushuncha bering.
2. Windows muhitida fayllarni qidirish.
3. $\neg(\neg B \vee A) \wedge \neg D$ mantiqiy ifodaga mos mantiqiy sxema chizing.

21-bilet

1. Magnit, optic va USB-disklar.
2. Elektron hisoblash mashinalarining avlodlari.
3. Shaxsiy kompyuterlar va ularning tuzilishi.

22-bilet

1. Kompyuterning qo'shimcha qurilmalari.
2. Shaxsiy kompyuterlarning mantiqiy asoslarini tushuntiring.
3. Mantiqiy elementlar va ularni kompyuterlar bilan qanday bog'liqliklari bor?

23-bilet

1. Tashqi xotiralar ustida bajariladigan asosiy amallarni tushuntiring.

- Operatsion sistemalarning turlari va rivojlanish tarixi.
- $A = "111_2 = 4_{10}"$, $B = "9_{16} = 1001_2"$, $D = "5_{16} = 101_2"$ bo'lganda $\neg A \wedge (B \vee \neg D)$ ifoda qiymatini hisoblang.

24-bilet

- Hisoblash texnikasi rivojiga xissa qo'shgan vatandoshlarimiz haqida ma'lumot bering.
- Qobiq dasturlar haqida ma'lumot bering.
- $x - 111001_2 = 1110_2$ tenglamani eching.

25-bilet

- Mantiqiy qo'shish amali haqida ma'lumot bering va misollar keltiring.
- Windows yo'l boshlovchisi qobiq dasturi haqida ma'lumot bering.
- 226_{16} , 64_{16} , 62_{16} sonlarning o'rtacha arifmetik qiymatini hisoblang.

26-bilet

- Kompakt disklardagi axborotni o'qish va yozish jarayonini izohlab bering.
- Zamonaviy kompyuterlarning multimedia imkoniyatlari haqida ma'lumot bering.
- Berilgan elektron jadvalda quyidagi qanday mulohaza rost:

	A	B	C	D
1	2	10	6	8
2	-7	12	11	16
3	22	8	7	2
4	3	24	3	6

- $D1 = (A1+B2+C3)/2$;
- $D2 = CYMM(A2:C3)$;
- $D3 = CYMM(A3:B3)/CYMM(B3:C3)$;
- $D4 = C3*C4-(C1-C2)/5$.

27-bilet

- Windows operatsion sistemasining standart dasturlari haqida tushuncha bering.
- Mantiqiy inkor haqida ma'lumot bering va misollar keltiring.
- Elektron jadvalda $2/3^2 - (13-6)/(2*4)$ ifoda yozilgan. Ushbu ifodaning matematik ko'rinishini yozing.

28-bilet

- Mantiqiy ko'paytirish amali haqida ma'lumot bering va misollar keltiring..

- Fayllar turlari hamda ularga mos kengaytmalar haqida tushuncha bering.
- $A = "111_2 = 3_{10}"$, $B = "1 Pb = 1 Tb"$, $D = "4_{16} = 101_2"$ bo'lganda $A \wedge \neg(B \vee \neg D)$ ifoda qiymatini hisoblang

29-bilet

- Monitorlar haqida ma'lumot bering.
- Windows muhitida fayllarni qidirish haqida ma'lumot bering.
- $\frac{7^{6+2} \cdot 8}{3} : \frac{25 \cdot 41}{11}$ arifmetik ifoda elektron jadval muharririda qanday yoziladi?

30-bilet

- Mantiqiy sxemalar haqida ma'lumot bering.
- Mening kompyuterim qobiq dasturi haqida ma'lumot bering.
- $\neg(\neg A \vee B) \wedge \neg D$ mantiqiy ifodaga mos rostlik jadvalini yozing

ILOVA. KOMPYUTER BILAN TA'MINLANGAN MAKTABLAR UCHUN 3-SAVOL.

- O'quvchilarning davomat jadvalini tuzing. Misol:

	A	B	C	D	E	F	G	H	I	J	K	L	M	N	O	P	Q	R	S	T	U	
1																						
2	O'quvchilar davomati																					
3																						
4		1-5 fevral				8-12 fevral				15-19 fevral				21-25 fevral								
5	F.I.Sh.	Du	Se	Chr	P	Ju	Du	Se	Chr	P	Ju	Du	Se	Chr	P	Ju	Du	Se	Chr	P	Ju	
6	Abdullayev I.R.	K																				
7	Bekmirzayev D.K.		0	0	0							0										
8	Hakimova N.N.							K			0						K					
9	Davronov A.D.		0																			
10	Asqarov I.R.				K	0																
11																						
12		0 -	Kelmadi																			
13		K -	Kechikdi																			

- Informatika fanidan sinf jurnalining electron jadvalini tuzing. Bunda, 1- va 2-choraklarda olgan baholari, o'rtacha bah ova choraklik baholar aks etsin.
- Bir haftalik dars jadvalini tuzing. Bunda, har bir fan o'qituvchining ismi va familiyasini tegishli fan kiritilgan katakchaga "Вставить примечание" buyrug'I orqali kiriting.
- Sinfingizdagi o'quvchilar haqidagi jadvalni tuzing, bunda jadval quyidagi ma'lumotlardan iborat (har ma'lumot alohida katakchaga kiritiladi): ismi,

familiyasi, tug'ilgan sana, yashash manzili, uy telefoni, ota-onasining ismi va familiyasi.

5. Respublikamizning 10 ta yirik shaharlarining aholisi soni aks etgan jadval tuzing hamda jadvaldagi qiymatlarning gistogrammasini yasang.

6. Sinfingizdagi o'quvchilarning barcha fanlardan I- va II-choraklarda olgan baholar jadvalini tuzing. Ushbu jadval asosida o'quvchilar reytingini aniqlang.

7. 5 ta sinfdoshingizning familiya va ismlarini mos ravishda I va J ustunlarga kiritib, ulardagi belgilar sonining o'rtachasini hisoblash jadvalini tuzing.

8. A2 katakchaga joriy sanani (oy/kun/yil) kiriting, A4 katakchada esa mustaqillik e'lon qilingan kundan bugungacha necha kun o'tganini hisoblang.

9. A5 katakchada qiymati 50 dan oshmaydigan M musbat butun songa mos $P=1 \cdot 2 \cdot 3 \cdot \dots \cdot M$ ko'paytma qiymatini barcha raqamlari bilan B1 katakchada aniqlang.

10. A1 katakchada qiymati 100 dan oshmaydigan K musbat butun songa mos $P=1 \cdot 2 + 2 \cdot 3 + 3 \cdot 4 + \dots + (K-1) \cdot K$ yig'indi qiymatini B1 katakchada aniqlang.

11. B1, B2, C2 katakchlardagi matnlarni boshqa katakchada bitta matnga birlashtiring.

12. Burgutning tezligi A m/s, gepardning tezligi B km/soat. Ularning tezliklarini taqqoslab A7 katakchada «Burgutning tezligi katta» yoki «Gepardning tezligi katta» yozuvini aks ettiring.

13. A1 va B2 katakchadagi sonlardan kattasining 3-raqamini C3 katakchada aniqlang.

14. A1 katakchadagi butun sonni B1 katakchadagi natural songga bo'lganda butun qismini A2 katakchada, qoldig'ini B2 katakchada aniqlang.

15. A1:A6 va B2:B5 katakchalardagi sonlardan kichigining 3-raqamini D1 katakchada aniqlang.

16. A1 va B2 katakchadagi sonlardan kichigining birinchi raqamini E2 katakchada aniqlang.

17. C1:D6 katakchalarga sonlar kiritib ulardan eng kattasining 1- va 2-raqamlari ko'paytmasini A2 katakchada aniqlang.

18. A1:A3 katakchalardagi sonlarning o'rta arifmetigi va B3:B5 katakchalardagi sonlar o'rta geometrigining yig'indisini F3 katakchada aniqlang.

19. A1:A5 katakchalardagi sonlarning o'rta arifmetigi va B3:B5 katakchalardagi sonlar o'rta geometrigining kattasini D3 katakchada aniqlang.

20. A1:A15 katakchalardagi har xil ishorali sonlarga teskari ishorali sonlarni E2:E16 ustunda aniqlang.

21. A3 katakchadagi sonni toq yoki juftligini D3 katakchada aniqlang.

22. A3 katakchadagi son n ga karrali yoki karrali emasligini F1 katakchada aniqlang.

23. B1:B5 katakchalarda sonlar berilgan. Shu sonlardan nechtasi 0 dan farqliligini D3 katakchada aniqlang.

24. A1:A15 katakchalardagi sonlardan nechtasi C1 katakchadagi songa tengligini D2 katakchada aniqlang.

25. x ning $[-20;20]$ oraliqdagi butun qiymatlarida $y = x^2$ va $y = x^2 + 5x$ funksiyalarning qiymatlarini va nuqtali grafigini hosil qiling.

26. O'zingiz va 3 ta sinfdoshingizni informatika fanidan shu chorakda olgan ballaringizning o'rtachasini taqqoslash diagrammasini hosil qiling.
27. Tomoni 8 ga teng bo'lgan teng tomonli uchburchak, to'g'ri to'rtburchak va parallelogramm perimetrlarini taqqoslash diagrammasini hosil qiling.
28. O'zbekiston avtomobillarining tezlik ko'rsatkichi va quvvatini taqqoslovchi diagramma hosil qiling va formatlang.
29. $y = 6x + 18$ funksiyaning grafigini $[-3; 3]$ oraliqda 0,5 qadam bilan hosil qiling va tahrirlang.
30. A1 katakchadan A10 katakchagacha har xil uzunlikdagi so'zlar kiritib, B2 ustunda ularning uzunligini hisoblang va taqqoslash diagrammasini hosil qiling.

GEOGRAFIYA

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfini tugatgan o'quvchilar geografiya fanidan DTC bo'yicha ma'lum darajada bilimga ega bo'ladilar.

O'quvchilarning olgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida 2012-2013 o'quv yilida 8 sinflarda bosqichli nazorat imtihoni bilet savollariga og'zaki javob berish usulida o'tkaziladi. Tayyorgarlik ko'rish uchun 20 daqiqa vaqt beriladi.

Har bir o'quvchiga bittadan bilet beriladi. Har bir biletida 2 ta nazariy va 1 ta amaliy topshiriq keltirilgan.

Biletida 2 ta nazariy savol o'quvchilarning 8-sinfda "O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" kursi yuzasidan o'rganilgan mavzulari bo'yicha va 1 ta amaliy topshiriq 5-8 sinf mavzulari yuzasidan beriladi. Bilet savollariga O'zbekiston Respublikasining tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklarining milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati, milliy iqtisodiyotning tarmoqlari, aholi va inson omili, Respublika yoqilg'i energetikasi, agrosanoat majmuasi, aholiga xizmat ko'rsatish va turizm, xizmat ko'rsatish turlari (matbaachilik, ta'lim), O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining hududiy tashkil etilishi (iqtisodiy rayonlar), atama va tushunchalar, hamda amaliy topshiriqlar kiritiladi.

Har bir berilgan savolga javob 5 ballik tizim asosida baholanadi. Masalan: 1-savolga 5, 2-savolga 4, 3-savolga 3 qo'yilib, baholar umumlashtirilib so'ngra ulardan o'rtacha ball chiqariladi. $5+4+3 = 12:3=4$

O'quvchilarni baholashda qo'yiladigan ball ular egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalardan kelib chiqib belgilanadi.

Nazariy savollarga berilgan javoblarni baholash mezon.

№	Baholash mezon	Ball
1.	O'quvchi tomonidan savollarga javob mazmunan to'la ochib	5

	berilib, atama va tushunchalarning lug'aviy ma'nosini to'g'ri ayta olib, xarita bilan ishlashni to'g'ri yo'lga qo'ya olsa	
2.	O'quvchi tomonidan savollarga javob mazmunan to'la ochib berilib, atama va tushunchalarning lug'aviy ma'nosini to'g'ri ayta olib, xarita bilan ishlashda 1 ta va undan ortiq kamchiliklarga yo'l qo'ysa	4
3.	O'quvchi tomonidan savollarga javob mazmunan to'la ochib berilib, atama va tushunchalarning lug'aviy ma'nosini izohlashda 2 ta va undan ortiq xatoliklarga yo'l qo'yilib, xarita bilan ishlashni to'g'ri yo'lga qo'ya olmasa	3
4.	O'quvchi tomonidan savollarga javob mazmunan to'la ochib berilmasa, atama va tushunchalarning lug'aviy ma'nosini izohlashda 3 ta va undan ortiq xatoliklarga yo'l qo'yilib, xarita bilan ishlashni to'g'ri yo'lga qo'ya olmasa	2
5.	O'quvchi tomonidan savollarga javob mazmunan to'la ochib berilmasa, atama va tushunchalarning lug'aviy ma'nosini izohlay olmasa, xarita bilan ishlashni to'g'ri yo'lga qo'ya olmasa	1

Amaliy topshiriq javoblarini baholash mezon.

№	Baholash mezon	Ball
1.	O'quvchi tomonidan topshiriqni bajarishda ilmiy xatoliklarga yo'l qo'yilmagan. Topshiriqning yechilish shartlari ko'rsatilib aniq va to'g'ri bajarilgan bo'lsa	5
2.	O'quvchi tomonidan topshiriqni bajarishda 1 ta va undan ortiq ilmiy xatoliklarga yo'l qo'yilgan. Topshiriqning yechilish shartlarida 1 ta dan ortiq xatoliklarga yo'l qo'yib bajarilgan bo'lsa	4
3.	O'quvchi tomonidan topshiriqni bajarishda 2 ta va undan ortiq ilmiy xatoliklarga yo'l qo'yilgan. Topshiriqning yechilish shartlari ko'rsatilmasdan javobi to'g'ridan to'g'ri yozib qo'yilgan bo'lsa	3
4.	O'quvchi tomonidan topshiriqni bajarishda 3 ta va undan ortiq ilmiy xatoliklarga yo'l qo'yilgan. Topshiriqning yechilish shartlari ko'rsatilmasdan javobi to'g'ridan to'g'ri yozib qo'yilgan bo'lsa	2
5.	O'quvchi topshiriqni bajarishga urungan ammo mutlaqo xato bajargan bo'lsa.	1

Izoh: Amaliy topshiriqlarini bajarish uchun zarur o'quv jihozlari (O'zbekiston Respublikasining tabiiy, iqtisodiy va siyosiy xaritalari, dunyoning

tabiiy va siyosiy xaritalari, 6,7,8- sinf o'quv atlaslari va boshqa materiallar) o'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlab qo'yiladi.

1 –bilet

1. O'zbekiston Respublikasining tabiiy geografik o'rni, chegaralari, chekka nuqtalari, maydoni va tabiatining o'ziga xos xususiyatlari haqida gapiring.

2. Respublikamiz yalpi sanoat mahsuloti hajmida rangli metallurgiya salmog'i necha foizni tashkil etadi? Quyida berilganlardan og'ir metallarni ajratib ayting. (Titan, aluminiy, mis, qalayi, magniy, oltin, platina, volfram, rux, qo'rg'oshin, nikel, uran, kumush).

3. Namangan viloyati maydoni 7,4 ming\km², aholisi 1.01.2012 yil holati bo'yicha 2 mln 449 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, Viloyat aholisining zichligini toping.

2-bilet

1. Mashinasozlik majmuasining tarmoqlarini sanab bering. Xaritadan qishloq xo'jaligi mashinalari ishlab chiqaradigan shaharlarni ko'rsating.

2. Quyidagi geografik atamalarning lug'aviy ma'nosini ayting. Intensiv xo'jalik, tranzit.

3. Yanvar oyining o'rtacha harorati -6°C , iyul oyidagi o'rtacha harorat $+18^{\circ}\text{C}$ bo'lsa, bir yillik havo haroratining amplitudasi necha gradusga teng bo'ladi?

3 – bilet

1. O'zbekiston shaharlari (Toshkent, Samarqand, Buxoro) haqida gapiring va ushbu shaharlarni xaritadan ko'rsating. (Arab sayyohi Ibn Battuta shaharalarimiz haqida o'z sayohadida qanday ma'lumotlarni yozib qoldirgan?)

2. Quyidagi geografik atamalarning lug'aviy ma'nosini ayting. Energetika tizimi, boyitish fabrikasi, irrigatsiya

3. Masshtabi 1: 40 000 000 xaritada daryo uzunligi 6 sm ga teng bo'lsa daryoning haqiqiy uzunligi necha km ga teng?

4 – bilet

1. O'zbekiston Respublikasining avtomobilsozlik sanoati va uning istiqbollari haqida gapiring. Xaritadan avtomobil ishlab chiqaradigan shaharlarni ko'rsating

2. Quyidagi geografik atamalarning lug'aviy ma'nosini ayting. Migratsiya, ishlab chiqarishning markazlashuvi.

3. Berilgan statistik ma'lumotlar asosida Andijon va Sirdaryo viloyatlari aholisining urbanizatsiya darajasini aniqlang.

3. Agar tog' etagida barometr 740 mm ni, tog' tepasida esa 440 mm ni ko'rsatsa, tog'ning o'rtacha balandligini aniqlang.

9 –bilet

1. O'zbekiston Respublikasida tashqi savdo va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qanday yo'lga qo'yilgan?

2. Surxondaryo viloyati xo'jaligining asosiy tarmoqlari haqida gapiring. Xaritadan viloyatning yoqilg'i sanoati markazlarini ko'rsating.

3. Dengiz suvining harorati 9⁰C, chuqurligi esa 3 km bo'lsa, dengiz tubidagi suv harorati qanchaga teng bo'ladi?

10-bilet

1. O'zbekiston Respublikasining ko'mir sanoati haqida gapiring. Xaritadan Angren, Sharg'un, Boysun ko'mir konlarini ko'rsating.

2. Farg'ona viloyati sanoatining asosiy tarmoqlari qaysilar? Farg'ona shahrida yengil sanoatning qaysi turlari rivojlangan?

3. Respublikamiz viloyatlaridan birida qishloq xo'jaligi donli ekinlarining bir yillik hosilini 100 % deb olamiz shundan, bug'doy 35%, arpa 25 %, sholi 17 %, jovdar 13 %, makkajuxori 10 %, ni tashkil etadi. Berilgan ma'lumotlar asosida ularni ustunli diagrammada aks ettiring.

11-bilet

1. O'zbekiston Respublikasining yengil sanoati haqida gapiring. Iqtisodiy xaritadan pilla chuvish fabrikalaridan 5 tasini ko'rsating.

2. Qurilish materiallari sanoati haqida gapiring. Mamlakatimizda eng yirik sement ishlab chiqaradigan kombinalarni xaritadan ko'rsating.

3. Yer aylana uzunligi 40 000 km ekanligi ma'lum bo'lsa, 1⁰ meridian yoyi oralig'idagi masofani aniqlang.

12-bilet

1. Samarqand iqtisodiy rayonining iqtisodiy geografik o'rni va aholisi haqida gapiring.

2. Aholiga xizmat ko'rsatish rayonlari vujudga kelishiga ko'ra qanday guruhlarga bo'lainadi? Quyidagi geografik atamalarning lug'aviy ma'nosini ayting. Rekratsiya, matbaachilik.

3. Tepalikning balandligi 18 m. uning janubi sharqiy qismi tik, shimoli g'arbiy qismi esa qiya. Tepalikni gorizontallarda aks ettiring. Izoh: Gorizontall chiziqlarni har 6 m. dan o'tkazing.

13 – Bilet

1. Quruqlik transporti haqida gapiring. Xaritadan mamlakatimizning elektrlashtirilgan temir yo‘llari qaysi shahrlardan o‘tganligini ko‘rsating.
2. Navoiy viloyati qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlarini aytib bering.
3. Yer aylana uzunligi 40 000 km ekanligi hammaga ma‘lum. 1 meridian yoyi oralig‘idagi masofani aniqlang.

14 – billet

1. Energetika tizimi deb nimaga aytiladi? Mamlakatimizda energetika tizimi qanday yo‘lga qo‘yilgan? Respublikamizning eng yirik gidroelektr stansiyalari joylashgan shaharlarni xaritadan ko‘rsating.
2. Navoiy viloyati xo‘jaligining asosiy tarmoqlarini ayting. Viloyat mamlakatda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyaning necha foizini beradi?
3. Masshtabi 1: 5 500 000 sm bo‘lgan xaritada Guliston va Termiz shaharlari orasidagi masofa 7 sm ga teng bo‘lsa, shaharlar orasidagi haqiqiy masofani aniqlang.

15 –billet

1. Qorqalpog‘iston Respublikasi qishloq xo‘jaligi haqida gapiring.
2. Quyidagi geografik atamalarning lug‘aviy ma‘nosini ayting. Eksport, import, qishloq xo‘jaligi.
3. Berilgan statistik ma‘lumotlarga asoslanib, Samarqand va Jizzax viloyatlari aholisining urbanizatsiya darajasini aniqlang.
 - a) Samarqand viloyati aholisi soni - 3mln 365 ming.k, shahar aholisi- 700 ming.k
 - b) Jizzax viloyati aholi soni- 1mln 202 ming.k, shahar aholisi- 400 ming.k.

16 – billet

1. Qashqadaryo viloyatida sanoatning qaysi tarmog‘i ustun turadi? Kitob kenglik stansiyasi haqida gapiring.
2. Quyidagi geografik atamalarning lug‘aviy ma‘nosini ayting. GESlar kaskadi, rekratsiya.
3. O‘zbekiston Respublikasi maydoni 448,9 ming km², aholisi 1.01.2012 yil holati bo‘yicha 29 mln 800 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, aholi zichligini toping.

17 –billet

1. O'zbekiston iqtisodiyotining hududiy tashkil etilishi haqida gapiring.
2. Buxoro viloyatining sanoati haqida gapiring. Xaritadan yoqilg'i sanoati joylashgan shaharlarni ko'rsating.
3. Tepalikning balandligi 28 m. uning g'arbiy qismi tik, sharqiy qismi esa qiya. Tepalikni gorizontallarda aks ettiring. Izoh: Gorizontallarni har 3 m. dan o'tkazing.

18 – billet

1. O'zbekiston Respublikasida mehnatda band aholining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi haqida gapirib bering.
2. Berilgan shaharlar ichidan O'zbekistondagi yirik meva – konserva korxonalarini joylashgan shaharlarni ajratib ayting - (Farg'ona, Toshkent, Yangiyo'l, Pop, Jizzax, Samarqand, Qarshi, Marjonbuloq, Namangan, Quva, Shahrisabiz, Parkent, Zomin, Zarkent, G'azalkent, Ishtixon, Andijon) va ularni xaritadan ko'rsating.
3. Toshkent viloyatida qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar tarkibini 100 % deb olasak, shundan, paxta 19 %, g'alla 27 %, kartoshka 1%, sabzovot va poliz ekinlari 5 %, ozuqa bop ekinlar 7 %, mevazorlar 6 %, uzumzorlar 3%, yaylovlar 32% ni tashkil etadi. Berilgan ma'lumotlar asosida ularni aylana diagrammada aks ettiring.

19 -bilet

1. O'zbekiston aholisi va milliy tarkibi haqida gapiring.
2. Andijon viloyati sanoati haqida gapiring. Xaritadan mashinasozlik va neftni qayta ishlash korxonalarini joylashgan shaharlarni ko'rsating.
3. Agar joy planida: a) 700 m uzunlikdagi ko'cha 7 sm; b) 1 km uzunlikdagi ko'cha 10 sm; c) 2 km uzunlikdagi ko'cha 20 sm bilan ifodalangan bo'lsa, ushbu planning masshtabini aniqlang.

20–bilet

1. Qora metallurgiya sanoati haqida gapiring. Mamlakat yalpi sanoat mahsuloti hajmida qora metallurgiyaning salmog'i qanchaga teng?
2. Farg'ona viloyati xalq xo'jaligida qaysi tarmoqlar yetakchilik qiladi? Xaritadan viloyatning mashinasozlik va metalni qayta ishlash, kimyo va neftni qayta ishlash markazlarini ko'rsatib qishloq xo'jaligi haqida gapirib bering
3. Jizzax shahridan Urganchgacha bo'lgan 640 km li masofa birinchi xaritada 16 sm ga, huddi shu masofa ikkinchi xaritada 8 sm ga teng bo'lsa, xaritalarning masshtabini aniqlang. Aniqlangan masshtablarning qaysi biri yirik?

21-bilet

1. Gaz sanoati haqida gapiring. Tabiiy gazdan qanday maqsadlarda foydalaniladi? O‘zbekistondagi gaz qazib olinadigan konlarni xaritadan ko‘rsating.

2. Quyidagi geografik atamalarning lug‘aviy ma’nosini ayting. Dehqon xo‘jaligi, shartli yoqilg‘i.

3. 30° sharqiy uzoqlikdagi nuqtani qaysi soat mintaqasida joylashganligini toping?

22 – bilet

1. Oziq – ovqat sanoati haqida gapiring.

2. Toshkent iqtisodiy rayoni sanoatining asosiy tarmoqlari haqida gapiring. Iqtisodiy rayonning rangli va qora metallurgiya korxonalarini joylashgan shaharlarini xaritadan ko‘rsating.

3. Samolyot 3 km balandlikda uchib bormokda. Yer yuzasida harorat $+20^{\circ}\text{C}$ bo‘lsa, samolyot uchib borayotgan balandlikdagi haroratni aniqlang

23 – bilet

1. Mirzacho‘l iqtisodiy rayoniga tavsif bering. Xaritadan rayonning yirik oziq-ovqat sanoati markazlarini ko‘rsating.

2. Quyidagi geografik atamalarning lug‘aviy ma’nosini ayting. Sanoat tuguni, hududiy ishlab chiqarish majmuasi.

3. Qo‘qondan Beruniy shahrigacha bo‘lgan 880 km li masofa birinchi xaritada 22 sm ga, huddi shu masofa ikkinchi xaritada 16 sm ga teng bo‘lsa, xaritalarning masshtabini aniqlang. Aniqlangan masshtablarning qaysi biri yirik?

24-bilet

1. O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligining qaysi tarmoqlari yaxshi rivojlangan. Xaritadan asosan qora mol boqiladigan hududlarni ko‘rsating.

2. Farg‘ona iqtisodiy rayoniga quyidagi reja asosida ta’rif bering.

a) geografik o‘rni; b) aholisi; c) qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari; d) sanoatining asosiy tarmoqlari; e) shaharlari.

3. Berilgan ma’lumotlarga ko‘ra bir sutka davomida ob-havo quyidagicha o‘zgargan bo‘lsa, sutka ichidagi o‘rtacha haroratni aniqlang. -8°C , -10°C , -12°C , -16°C , $+2^{\circ}\text{C}$, $+4^{\circ}\text{C}$, -4°C , -6°C .

25- bilet

1. Yoqilg‘i sanoati haqida gapiring. Sanoat korxonalarini joylashtirishda qanday tabiiy va ekologik omillar hisobga olinadi?

2. Quyidagi geografik atamalarning lugʻaviy maʼnosini ayting. Fermer xoʻjalik, briket, yoʻldosh shaharlar.

3. Yillik yogʻin miqdori 300 mm, bugʻlanish 1000 mm ga teng boʻlsa, namlik koeffitsientini aniqlang.

26-bilet

1. Oʻzbekistonning qimmatbaho va ogʻir metallurgiya sanoatiga tavsif bering va xaritadan mamlakatimizda aniqlangan oltin konlaridan 5 tasini koʻrsating.

2. Quyidagi geografik atamalarning lugʻaviy maʼnosini ayting. Quyosh energiyasi, markazlashuv.

3. Agar 5000 km masofa globusda 2 sm ga teng boʻlsa, ushbu globusning masshtabini aniqlang.

27- bilet

1. Toʻqimachilik sanoati haqida gapiring. Oʻzbekistonda qaysi davlatlar bilan hamkorlikda toʻqimachilik korxonalarini barpo etilgan? Toʻqimachilik korxonalarini joylashgan shaharlarni xaritadan koʻrsating

2. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonining asosiy sanoat markazlari va shaharlari haqida gapiring.

3. Berilgan statistik maʼlumotlarga asoslanib, Xorazm viloyati va Qoraqalpogʻiston Respublikasi aholisining urbanizatsiya darajasini aniqlang.

a) Xorazm viloyati aholisi soni – 1mln 645ming .k, shahar aholisi –400 ming. k

b) Qoraqalpogʻiston Respublikasi aholi soni – 1mln 704 ming.k, shahar aholisi – 780 ming.k.

28 -bilet

1. Kimyo sanoati korxonalarini joylashtirishda qanday omillar hisobga olinadi? Respublikamizdagi kimyo korxonalarini joylashgan shaharlarni xaritadan koʻrsating.

2. Quyidagi geografik atamalarning lugʻaviy maʼnosini ayting. Quyosh energiyasi, tabiiy resurslar, tabiiy oʻsish.

3. Oʻzbekistonda aholining tabiiy oʻsish darajasi 472 ming kishini tashkil etib. tugʻilganlar soni 609 ming kishini tashkil etsa oʻlganlar sonini aniqlang.

29- bilet

1. Avtomobilsozlik sanoati haqida gapiring. Oʻzbekistonda qaysi rusmdagi avtomobillar ishlab chiqarilmoqda?

2. Fargʻona iqtisodiy rayoniga quyidagi reja asosida taʼrif bering.

a) geografik oʻrni; b) aholisi; c) qishloq xoʻjaligining asosiy tarmoqlari;

d) sanoatining asosiy tarmoqlari; e) shaharlari.

3. 6000 m balandlikka ko'tarilgan alpinistlarning barometri 250 mm simob ustunini ko'rsatgan bo'lsa, shu vaqtda tog' etagidagi havo bosimi qanchaga teng bo'ladi?

30-bilet

1. Neft sanoati haqida gapiring. O'zbekistonda neft qazib olinadigan konlarni xaritadan ko'rsating.

2. Qashqadaryo iqtisodiy rayoni sanoatining asosiy tarmoqlari haqida gapiring.

3. Byxopo viloyatida qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar tarkibini 100 % deb olasak, shundan, paxta 5 %, g'alla 3 %, kartoshka 0,1 %, sabzovot va poliz ekinlari 0,5 %, ozuqa bop ekinlar 0,4 %, mevazorlar 0,6 %, uzumzorlar 0,4%, yaylovlar 90% ni tashkil etadi. Berilgan ma'lumotlar asosida ularni aylana diagrammada aks ettiring.

O'ZBEKISTON DAVLATI VA HUQUQI ASOSLARI

8-SINF

"O'zbekiston davlati va huquqi asoslari" fanidan bosqichli nazorat imtihonini o'tkazish uchun taklif etilayotgan mazkur topshiriqlar umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari asosida tayyorlangan. Bunda o'quvchilar berilgan savollarga og'zaki javob beradi.

Imtihon topshirish jarayonida o'quvchi o'z fikrini faqatgina darsliklar asosida emas, balki boshqa me'yoriy manbalar asosida ham bayon qilishi mumkin. Ushbu topshiriqlar huquqiy ta'lim-tarbiya berishni amalga oshirishning barcha jarayonlarini o'z ichiga qamrab olgan bo'lib, o'quvchilar bilimini aniqlash me'yorini belgilab beradi.

O'quvchisi savollarga javob berishda quyidagi talablarni bilishi lozim.

- davlat shakllari, davlat tuzilishi shakli, davlat boshqaruv shakli, davlat boshqaruvini amalga oshirishning demokratik va g'ayri demokratik usullari, ularning o'ziga xos xususiyatlari;
- davlat va huquqning o'zaro bog'liqligi;
- ahloq tushunchasi, ahloqning jamiyat hayotida tutgan o'rni, ahloq va huquqning o'zaro munosabatlari hamda ular orasidagi farqlar;
- huquq me'yorlarining mazmuni, huquq me'yorlariga amal qilish, huquq me'yorlariga amal qilmaslik oqibatlari, huquq me'yorlarining amal qilish muddatlari to'g'risidagi tushunchalar;
- demokratik-huquqiy davlat tushunchasi, uning o'ziga xos xususiyatlari, demokratik davlatga qo'yiladigan talablar, demokratik-huquqiy davlat va jahon hamjamiyati. Demokratik huquqiy davlatni qurish muammolari.

- Fuqarolik jamiyati tushunchasi, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, fuqarolik jamiyati tamoyillari, fuqarolik jamiyatining asoslari to`g`risidagi tushunchalar;
- Prezident asarlaridagi davlat va huquqqa, davlat va jamiyat hayotiga, davlat va uning organlarini isloh qilish va rivojlanishiga oid asosiy g`oyalar.
- o`zbek milliy davlatchiligining yuzaga kelishi va rivojlanishining o`ziga xos xususiyatlari, milliy huquq asoslarining yaratilishi.

O`quvchilarning egallagan bilimlarining yig`indisi ularning ko`nikma va malakalarining shakllanishiga teng. Ya`ni o`quvchi egallagan bilimi asosida 8-sinf o`quvchisi uchun belgilangan talablarni bajarishi lozim.

O`quvchining biletidagi savolga bergan javobi maksimal 5 ball bilan baholanadi.

O`quvchilarning bilimlari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

1.	Javobni amaliyot bilan bog'lash	1
2.	Konstitutsiya va boshqa qonun yoki qonun osti hujjatlari bilan bog'lash	1
3.	Huquqiy atamalardan o'z o'rnida foydalanish	1
4.	Huquqiy atamalarga ta'rif bersa	1
5.	Nazariyaga ta'rif bersa	1
O`quvchining javobi yuqoridagi mezon asosida maksimal 5 ball baholanadi.		5

Biletidagi 3 ta savolga berilgan javoblarning ballari qo`shilib uchga bo`linadi va o`rtacha qiymati chiqariladi. Ushbu ball imtihon ishining haqiqiy bali hisoblanadi.

1-bilet

1. Inson huquqlari kafolati tushunchasi.
2. O`zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 18-moddasi.
3. O`zbekiston Respublikasida sud tizimi.

2-bilet

1. Huquq no`rmalari.
2. Davlat.
3. Bola huquqlari tog`risida konvensiya.

3-bilet

1. Monarhiya shaklidagi davlatlarning boshqaruviga ta`rif bering.
2. O`zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 52-moddasi.
3. Huquqiy davlat va uning belgilari.

4-bilet

1. Huquq va uning belgilari.
2. O`zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 4-moddasi.

3. Siyosiy rejim.

5-bilet

1. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasida inson huquqlari kafolati.
2. Axloq va huquqqa ta’rif berish, ularni farqlash.
3. Davlat tushunchasi.

6-bilet

1. Respublika shaklidagi davlatlar boshqaruviga ta’rif bering .
2. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 98-moddasi.
3. Davlat funksiyalari.

7-bilet

1. Oliy majlis.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari.
3. O‘zbekiston Respublikasining ijro etuvchi hokimiyat organlari.

8-bilet

1. Yuridik javobgarlik.
2. Konstitutsiyaning asosiy funksiyalari.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolatlari.

9-bilet

1. O‘zbekistonda Xalq hokimiyatchiligi, uni amalga oshirish shakllari.
2. O‘zbekiston Konstitutsiyasida inson huquqlari.
3. O‘zbekiston respublikasida davlat hokimiyati organlari tizimi.

10-bilet

1. O‘zbekiston Respublikasining huquqni muhofaza qiluvchi idoralari.
2. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 128-moddasi..
3. Huquqbuzarlik va uning belgilari.

11-bilet

1. Huquq normalarining tuzilishi va turlari.
2. Obyektiv huquq.
3. O‘zbekiston respublikasi davlat hokimiyati.

12-bilet

1. O‘zbekiston Respublikasining boshqaruv tizimi.
2. Ma’muriy javobgarlik.

3. Siyosiy rejim.

13-bilet

1. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasida axloq normalarining ifodalanishi.
2. Huquq tarmoqlari.
3. O‘zbekiston Respublikasi qonun manbalari.

14- bilet

1. Subyektiv huquq
2. Huquqiy munosabatlar va ularning tuzilishi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi.

15- bilet

1. Jinoiy javobgarlik.
2. Huquqiy munosabatlar va ularning tuzilishi.
3. O‘zbekiston Respublikasi davlat boshlig‘i.

16- bilet

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prokuraturasi.
3. Fuqarolik jamiyati.

17- bilet

1. Respublika shaklidagi davlatlar boshqaruvi.
2. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 76-moddasi.
3. Davlatning ichki va tashqi funksiyalari.

18-bilet

1. Inson huquqlari kafolati tushunchasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 22-moddasi.
3. Davlat tushunchasi.

19-bilet

1. Huquq va uning belgilari.
2. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 3-moddasi.
3. Huquqiy davlat va uning belgilari.

20-bilet

1. O‘zbekiston Respublikasi qonun manbalari.
2. Konstitutsiyaning asosiy funksiyalari.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolatlari.

21-bilet

1. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasida inson huquqlari kafolati.
2. Axloq va huquq.
3. Siyosiy rejim

22-bilet

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari.
2. Oliy majlis.
3. O‘zbekiston respublikasida davlat hokimiyati organlari tizimi.

23-bilet

1. O‘zbekistonda Xalq hokimiyatchiligi, uni amalga oshirish shakllari.
2. Huquq tarmoqlari.
3. Huquqbuzarlik va uning belgilari.

24-bilet

1. Avtoritar davlat boshqaruvi.
2. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 66-moddasi.
3. O‘zbekiston Respublikasida huquq tizimi.

25-bilet

1. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasida axloq normalarining ifodalanishi.
2. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 108-moddasi.
3. Yuridik va jismoniy shaxs tushunchalari.

BIOLOGIYA **(ODAM VA UNING SALOMATLIGI)**

2012-2013 o‘quv yilida biologiya fanidan umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarining olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash maqsadida 8-sinflarda uning tarkibiy qismi bo‘lgan “Odam va uning salomatligi” fanidan bosqichli nazorat imtihoni og‘zaki so‘rov shaklida o‘tkaziladi.

8-sinfda “Odam va uning salomatligi” fani yakunlovchi kurs bo‘lganligi uchun o‘quvchilardan 8-sinf davomida egallagan bilim, ko‘nikma va malakalardan tuzilgan savollar asosida 30 ta bilet shakllantiriladi. Har bir biletta o‘quvchiga 3 tadan savol beriladi. Savollarning 2 tasi nazariy, 1 tasi amaliy mashg‘ulotga oid bo‘ladi.

Har bir berilgan savolga javob 5 ballik tizim asosida baholanadi. Baholar umumlashtirilib o‘rtacha baho chiqariladi. Masalan: $5+4+3=12:3=4$

Nazariy savollarga berilgan javoblarni baholash mezonlari

№	Baholash mezonlari	Ball
1.	Savollarga taalluqli bilim, ko'nikma va malakalar mazmunan to'liq ochib berilsa, tushunchalar to'liq va aniq yoritilsa hamda to'g'ri xulosalansa.	5
2.	Berilgan savollarga taalluqli bilim, ko'nikma va malakalarga ta'rif berishda asosan to'g'ri yondoshilgan, lekin izchillik buzilgan, qonuniyatlar va nazariyalar tavsifida 1-2 ta xatoliklar bo'lsa.	4
3.	Savollarga taalluqli bilim, ko'nikma va malakalarga qisman to'g'ri ta'rif berilgan, tushunchalarni izohlashda 3-4 ta xatoliklarga yo'l qo'yilgan bo'lib, ta'riflarni xulosalashda 3-4 ta xatoliklar bo'lsa.	3
4.	Savollarga taalluqli bilim, ko'nikma va malakalarga qisman ta'rif berilib, to'liq xulosalanmagan, fikrlar chalkash, tushunchalarda xatoliklar ko'p bo'lsa.	2
5.	Bilim, ko'nikma va malakalar noto'g'ri talqin etilgan, javoblar xato bo'lsa	1

Amaliy ish va laboratoriya mashg'ulotlarini baholash mezonlari

№	Baholash mezonlari	Ball
1.	Laboratoriya ishini bajarish ketma-ketligiga rioya etilgan holda malakalar to'g'ri va to'liq ochib berilgan, rasm va jadvallar to'g'ri ifodalangan, to'g'ri xulosalangan bo'lsa	5
2.	Ishni bajarish ketma-ketligiga rioya etilgan. Egallagan malakalari asosida tajribalar to'liq bajarilgan, lekin natijalarni ifodalashda kichik xatoliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa	4
3.	Egallagan malakalari asosida ishni bajarish ketma-ketligiga to'liq rioya etilmagan. Ish qisman to'g'ri bajarilgan, lekin natijalar rasm va jadvallarda ifodalanmagan bo'lsa	3
4.	Egallagan malakalari asosida jihozlar to'g'ri tanlangan, lekin ishni bajarish ketma-ketligiga rioya etilmagan, ishni bajarishga to'g'ri yondashilmagan bo'lsa	2
5.	Jihozlar to'g'ri tanlanmagan, ish noto'g'ri bajarilgan.	1

Izoh: Amaliy ishlar va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zarur laboratoriya jihozlari, preparatlar va boshqa materiallar o'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlanadi.

1. Vatandoshlarimizni tibbiyot fanining rivojlanishiga qo‘shgan hissaslari haqida gapirib bering.
2. Orqa miya qanday qismlardan iborat?
3. Arterial qon ketganda birinchi yordam berish.

2-bilet

1. Hujayra qanday kimyoviy tarkibga ega?
2. Nerv sistemasining ahamiyati nimadan iborat.
3. Tizza refleksini hosil bo‘lishini kuzatish.

3-bilet

1. To‘qimalar turlari va funksiyasi nimadan iborat?
2. Bosh miya qanday qismlardan iborat?
3. Ichki organlardan qon ketganda birinchi yordam berish.

4-bilet

1. Odam organizmiga tashqi muhitning zararli ta’siri va uning oqibatlari haqida ma’lumot bering.
2. Vegetativ nerv sistemasining vazifasi nimalardan iborat?
3. Mikroskop ostida odam va qurbaqa qonini taqqoslash.

5-bilet

1. Suyaklarning qanday shakllari bor?
2. Nerv sistemasining qanday kasalliklarini bilasiz?
3. Su’niy nafas oldirish qanday amalga oshiriladi?

6-bilet

1. Odam tanasi suyaklarini qismlarga bo‘lib tushuntirib bering.
2. Reflekslarning yuzaga kelish sabablari va xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Odam tinch holatda bo‘lganda va jismoniy ish bajarganda tomir urishi (puls) sonini sanash.

7-bilet

1. Suyaklar qanday tarkibga ega?
2. Markaziy nerv sistemasining tormozlanishining qanday xillari farq qilinadi?
3. Sovqotganda va sovuq urganda birinchi yordam berish.

8-bilet

1. Muskullar qanday funksiyalarni bajaradi?
2. Oliy nerv faoliyatining asosiy shakllari nimalardan iborat?
3. Golovin Sivsev jadvali yordamida ko‘rish o‘tkirligini aniqlash.

9-bilet

1. Organizmning ichki muhitini nima tashkil etadi?
2. Nutq va fikrlash, uning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

3. Qonning shaklli elementlarini mikroskopda o'rganish.

10-bilet

1. Qonning tarkibi va shaklli elementlari haqida ma'lumot bering.
2. Uyqu va uning ahamiyati nimalardan iborat?
3. Muskullarning dinamik ishini kuzatish.

11-bilet

1. Qon guruhlari bir-biridan qaysi xususiyatlari bilan farq qiladi.
2. Nerv sistemasining gigienasi nimadan iborat?
3. Ko'rish o'tkirligini aniqlash

12-bilet

1. Immunitetning mohiyati, organizmning himoyalaniish bosqichlari nimalardan iborat.
2. Analizatorlar qanday qismlardan iborat?
3. Muskullarning statik ishini kuzatish.

13-bilet

1. Yurak qanday qismlardan tuzilgan?
2. Ko'zning tuzilishi va funksiyasi haqida ma'lumot bering.
3. So'lak fermentini kraxmalga ta'sirini o'rganish

14-bilet

1. Katta va kichik qon aylanish doirasining mohiyati nimadan iborat?
2. Ko'rish gigienasi nima?
3. Arteriya qon tomiridan qon ketganda birinchi yordam berish.

15-bilet

1. Limfa tizimining tuzilishini tushuntirib bering.
2. Eshitish organining tuzilishi va funksiyasi nimalardan iborat?
3. Ko'krak qafasi harakatini tajribada kuzatish.

16-bilet

1. Qonning tomirlar bo'ylab harakatlanishini tushuntirib bering.
2. Muvozanat organining tuzilishi va funksiyasi nimalardan iborat?
3. Bilak arteriyasida qon bosimini o'lchash.

17-bilet

1. Tashqi muhit omillarining yurak faoliyati va qon bosimiga ta'siri nimadan iborat.
2. Harakat analizatori qanday funksiyani bajaradi?
3. Muskul to'qimasining mikropreparatini mikroskopda kuzatish va uni jadval yoki rasmdagi muskul to'qimasi bilan taqqoslash.

18-bilet

1. Nafas olish a'zolarining ahamiyati nimalardan iborat?
2. Hid va ta'm bilish analizatori qanday funksiyani bajaradi?
3. Issiq va oftob urganda birinchi yordam berish.

19-bilet

1. Ovoz apparati qaerda joylashgan va qanday qismlardan iborat?
2. Ona qornida homilaning rivojlanishi qanday amalga oshadi?
3. Nafas havosi tarkibidagi karbonat angidrid gazini aniqlash.

20-bilet

1. O'pka va to'qimalarda gazlar almashinuvi qanday bosqichlarda amalga oshadi.
2. Bolaning o'sishi va rivojlanish bosqichlari haqida ma'lumot bering.
3. Bilak suyagi singanda birinchi yordam berish.

21-bilet

1. Nafas olish organlarining ishi qanday boshqariladi?
2. Odamning paydo bo'lishi to'g'risidagi qanday tushunchalarga egasiz?
3. Muskul va paylarning shikastlanishida birinchi yordam berish.

22-bilet

1. Ovqat hazm qilishning ahamiyati nimalardan iborat
2. Odam evolyusiyasining asosiy yo'nalishlari haqida ma'lumot bering.
3. Kapilyar qon ketganda birinchi yordam berish.

23-bilet

1. Ovqat hazm qilish a'zolarining tuzilishi va vazifasi nimalardan iborat?
2. Qad-qomatning shakllanishi haqida ma'lumot bering.
3. Vena qon tomiridan qon ketganda birinchi yordam berish.

24-bilet

1. Ovqat hazm qilish a'zolarining kasalliklari va ularni oldini olish choralari nimalardan iborat?
2. Qonning fizik va kimyoviy xossalarini tushuntirib bering.
3. Biriktiruvchi to'qimasining mikropreparatini mikroskopda kuzatish va uni jadval yoki rasmdagi biriktiruvchi to'qimasi bilan taqqoslash

25-bilet

1. Vitaminlar, ularning turlari va ahamiyati nimalardan iborat?
2. Ovqat hazm qilish a'zolarining ishi qanday boshqariladi?
3. Su'niy nafas oldirish qanday amalga oshiriladi?

26-bilet

1. Energiya almashinuvi qanday amalga oshadi?
2. Buyrakda siydik hosil bo'lish jarayonini tushuntirib bering.

3. Teri kuyganda birinchi yordam berish.

27-bilet

1. Ayirish tizimining ahamiyati nimadan iborat.
2. Markaziy nerv sistemasining kasalliklari haqida ma'lumot bering.
3. Bir kecha kunduzgi ovqat ratsionini tuzish.

28-bilet

1. Teri qanday qismlardan tuzilgan?
2. Buyrak usti, me'da osti va jinsiy bezlarning funksiyalari nimalardan iborat.
3. Epiteliy to'qimasining mikropreparatini mikroskopda kuzatish va uni jadval yoki rasmdagi epiteliy to'qimasi bilan taqqoslash

29-bilet

1. Gipofiz bezi garmonlari va ularning organizmga ta'siri nimalardan iborat?
2. Shartli va shartsiz reflekslar bir-biridan qanday farq qiladi?
3. Nerv to'qimasining mikropreparatini mikroskopda kuzatish va uni jadval yoki rasmdagi nerv to'qimasi bilan taqqoslash

30-bilet

1. Qalqonsimon, qalqon orqa va ayrisimon bezlarning funksiyalari nimalardan iborat?
2. Shartli refleksning tormozlanishi qanday ahamiyatga ega?
3. Terining turli sohalaridan qon ketganda birinchi yordam berish.